

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**NURULLAYEV SHOXRUX SHUXRATILLAYEVICH**

**QURILISH SOHASIDA ATROF-MUHITNI HUQUQIY  
MUHOFAZA QILISH MASALALARI**

12.00.06 –Tabiiy resurslar huquqi. Agrar huquq. Ekologik huquq

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Nurullayev Shoxrux Shuxratillayevich**

Qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish  
masalalari..... 3

**Nurullayev Shoxrux Shuxratillayevich**

Issues of legal protection of the environment in the construction  
sphere..... 23

**Нуруллаев Шохрух Шухратиллаевич**

Вопросы правовой охраны окружающей среды в сфере  
строительства.....43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

List of published works

Список опубликованных работ..... 47

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 07/03.06.2023.Yu.22.04  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**NURULLAYEV SHOXRUX SHUXRATILLAYEVICH**

**QURILISH SOHASIDA ATROF-MUHITNI HUQUQIY  
MUHOFAZA QILISH MASALALARI**

12.00.06 –Tabiiy resurslar huquqi. Agrar huquq. Ekologik huquq

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu1462 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Maxkamov Durbek Nematovich</b> yuridik fanlar doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Uzakova Guzal Sharipovna</b> yuridik fanlar doktori, professor <b>Safarov Djaxongir Ismailovich</b> yuridik fanlar doktori, dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/03.06.2023.yu.22.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 26-aprel soat 12-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko'chasi, 35. Tel./faks: +99871 233-66-36; faks: +99871 233-37-48; e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1384-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 11-aprel kuni tarqatildi.

(2025-yil 11-aprel 6-raqamli reestr bayonnomasi).



**S.S. Gulyamov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

**Sh.N. Raxmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,  
yuridik fanlar nomzodi (PhD), dotsent

**G.Yuldasheva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi o'rinbosari, yuridik fanlar  
doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda aholi sonining ortishi va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashayotganligi qurilish ishlarining ko‘lamini kengayishiga, tabiiy resurslarga bo‘lgan ehtiyoj ortib, atrof-muhitga antropogen ta’sir kuchayishiga olib kelmoqda. 2024-yil holatiga ko‘ra, dunyo aholisi taxminan 8,1 milliard kishini tashkil qilib, har yili taxminan 73 million kishiga ko‘payishi<sup>1</sup> insonlarning muhim ehtiyoji sanalgan qurilish sanoatining rivojlanishiga sabab bo‘ladi. 2022-yilda global qurilish bozorining umumiy hajmi 9,7 trillion AQSh dollarini tashkil etgan va bu raqam 2037-yilga kelib 13,9 trillion AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda.<sup>2</sup> Ta’kidlash lozimki, qurilish ishlari natijasida vujudga keladigan chiqindilar dunyodagi umumiy chiqindilarning uchdan bir qismini tashkil qiladi.<sup>3</sup> Ayniqsa, qurilishda ishlatiladigan kimyoviy moddalar, masalan, bo‘yoqlar, yelimlar, beton va boshqa qurilish materiallari ko‘p hollarda atrof-muhitga zarar yetkazadi.

Jahonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda qurilish jarayonida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga oid ilmiy jihatdan yondashuvlar tobora yangilanib, raqamli texnologiyalar orqali boshqarishning huquqiy tartibini ishlab chiqish, qurilish sohasida ekologik qoidalarni sun’iy intellekt yordamida tartibga solish, “Yashil qurilish”ning huquqiy tartibini ishlab chiqish, qurilish sanoatida insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqiga daxl qilmaslik, qurilish sohasida ekologik talablarni buzganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda ham qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishga alohida e’tibor berilib, “yashil hududlar”ni kengaytirish hamda barqaror rivojlanishning turli jihatlarini qo‘llab-quvvatlashga, qurilish sohasida zamonaviy va ekologik yondashuvlar joriy etish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish orqali atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni kamaytirish borasida ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan “qurilishga ruxsat berilganda, mavjud infratuzilmaga yuklama bo‘yicha aniq hisob-kitob qilinmayotgani, yashil maydonlar tashkil qilish ishlari qurilishlar bilan hamohang olib borilmayotgani sababli, shaharning bosh rejasi tasdiqlanmaguncha yangi qurilishlarga moratoriy e’lon qilinishi”<sup>4</sup> belgilandi. Shu bois, qurilish jarayonida atrof-muhitga zarar yetkazish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni kamaytirish, ekologik shaharlarni barpo etish ishlarini tizimlashtirish, qurilish uchun yer ajratishda shaharsozlik zonalashtirish bilan bir qatorda ekologik zonalashtirish ishlarini tashkil etish, qurilish sohasida atrof-muhitni muhofaza

<sup>1</sup> Official website of the worldometer // <https://www.worldometers.info/world-population/>

<sup>2</sup> Official website of the Oxford Economics // <https://www.oxfordeconomics.com/resource/global-construction-futures/>

<sup>3</sup> Norman Miller // The industry creating a third of the world's waste // <https://www.bbc.com/future/article/20211215-the-buildings-made-from-rubbish#:~:text=Roughly%20half%20of%20the%20raw%20materials%20we%20extract,least%2040%25%20of%20the%20world%E2%80%99s%20carbon%20dioxide%20emissions>

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti // <https://president.uz/uz/lists/view/5883>

qilishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, ilmiy asoslangan hamda islohotlarga hamohang bo'lgan mexanizmlarini ishlab chiqishga oid tadqiqotlar olib borishning zaruratini vujudga keltirmoqda.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son, 2017-yil 8-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5185-son, 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son, 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-son Farmonlari, 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda sohani tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish bilan bog'liq ayrim masalalar mamlakatimiz olimlaridan Y.O.Jo'rayev, M.B.Usmonov, J.T.Xolmo'minov, Sh.X.Fayziyev, G.Sh.Uzakova, O.D.Utegenov, O.X.Narzullayev, N.Sh.Rajabov, M.M.Nurmatov, J.I.Safarov, Q.Bobonazarov, A.Nurudullayev, D.Aripovlarning ilmiy ishlarida antropogen ta'sir ostida atrof tabiiy muhitga ta'sirini bartaraf etishning huquqiy masalalariga doir tadqiqot ishlari amalga oshirilgan<sup>1</sup>.

Shu bilan birga mavzuga doir bilvosita masalalar MDH davlatlarida A.P.Anisimov, V.Y.Yejova, A.N.Grechneva, K.I. Zuyev, Y.M.Galitskova, O.A.Lapina, U.V.Lazerov, V.L.Baxnov, R.R.Sadikov, N.Y.Popov, I.P.Avilova kabi olimlarning asarlarida tahlil qilingan.<sup>2</sup>

Xorijiy mamlakatlarda qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishga oid ayrim masalalar Lars Jensen, Fatima Khan, Wei Li, Nguyen Minh, Erin Daly, David Boyd, Hari Osofsky, Daniel Farber, Jutta Brunnée, Nicholas Robinson, Richard Lazarus, Joseph Sax, Cinnamon Carlarne kabi huquqshunos olimlarning asarlarida tadqiq etilgan.<sup>3</sup>

Yuqoridagi mualliflarning ilmiy izlanishlarida qurilish maqsadida yer uchastkalarini ajratish, qurilish jarayonida aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash, tabiiy resursdan foydalanishning huquqiy tartibi, uning iqtisodiy-

---

<sup>1</sup> **Izoh 1.:** Mazkur olimlarning asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

<sup>2</sup> **Izoh 2.:** Mazkur olimlarning asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

<sup>3</sup> **Izoh 3.:** Mazkur olimlarning asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

huquqiy mexanizmi kabi tashkiliy-huquqiy jihatlar u yoki bu darajada tadqiq qilingan bo'lsa-da, aynan qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish, ushbu sohaga oid qonunchilikni qo'llash amaliyoti va uni takomillashtirish masalalari ekologiya huquqi fani nuqtai nazardan kompleks tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlar rejasi bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Ekologik barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish masalalarini tahlil qilish asosida qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishga oid ilmiy konsepsiyalar, doktrinalar va prinsiplarni tahlil qilish;

qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishga oid muammolarni aniqlash va bartaraf etish yuzasidan taklif ishlab chiqish;

qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi faoliyatini huquqiy tartibga solish mexanizmlari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishga doir xalqaro tajribani tahlil qilish;

atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishga oid munosabatlarni tartibga soluvchi milliy qonunchilikka zamonaviy ekologik-huquqiy modellarni joriy qilish;

qurilish sohasida ekologik talablarni tahlil qilgan holda mavjud qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida qurilish sohasida atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq ekologik-huquqiy munosabatlar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik hujjatlari, ularni qo'llash amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlarni tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyani yozishda induksiya, deduksiya, tarixiy, mantiqiylik, tizimlilik, qiyosiy-huquqiy, statistik, so'rovnoma o'tkazish, analiz, sintez kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

qurilish jarayonida barqaror rivojlanishga erishishning dolzarbligini hisobga olgan holda insonlar hayoti uchun ekologik xavfsiz texnologiyalarni qo'llash va rivojlantirish, qurilish jarayonida energiyani tejovchi, ekologik xavfsiz, ijtimoiy foydali texnologiyalarni qo'llash va ulardan foydalanganlik uchun rag'batlantirishni joriy etish asoslantirilgan;

gidrotexnika inshootlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni minimallashtirish, ekologik barqarorlikni saqlash hamda davlat siyosatida inson va tabiat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish maqsadida gidrotexnika inshootlarini

qurishda quruvchi tomonidan inson hayoti va salomatligini himoya qilish hamda atrof-muhitni asrash ustuvor yoʻnalish ekanligini inobatga olish shartligi hamda asosiy prinsip boʻlishi asoslab berilgan;

tuproq muhofazasida ekologik barqarorlikni taʼminlash, tuproq resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik xavflarni kamaytirish, shuningdek, atrof-muhitni himoya qilish orqali aholi salomatligiga yetkazilishi mumkin boʻlgan salbiy oqibatlarining oldini olish maqsadida qurilish jarayonida tuproqdan foydalanuvchi oʻz faoliyatini amalga oshirishda inson sogʻligining va atrof-muhit xavfsizligining ustuvor yoʻnalishi ekanligini inobatga olish shartligi hamda asosiy prinsip ekanligi asoslab berilgan;

shaharsozlikda aholi punktlari bosh rejalariga muvofiq shahar va boshqa aholi punktlarida qurilishlarni suv bosish hududlarini hisobga olgan holda amalga oshirish, shuningdek, tabiiy ariqlarni saqlab qolish va yogʻingarchilik suvlarini chiqarib yuboruvchi tizimlarni yaratishning huquqiy mexanizmini joriy etish asoslantirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

yashil qurilishni ragʻbatlantirish, xususan davlat tomonidan grant va soliq imtiyozlari belgilash zarurati mavjudligi asoslab berilgan;

shaharlar yoki tumanlarning bosh qurilish rejasi tasdiqlanmagunga qadar qurilish loyihalarini tasdiqlash ishlarini toʻxtatib turish zarurligi asoslab berilgan;

qurilish sohasida atrof-muhit muhofazasida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, yaʼni atrof-muhitga salbiy taʼsirni kamaytirishga erishishda ekologik toza va barqaror materiallar hamda mahsulotlarni tanlashni taʼminlash uchun “green shopping” amaliyotini ham keng joriy qilish lozimligi asoslangan;

qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofazasida jamoatchilik nazorati ishtirokini oshirish, aholining qurilish sohasida atrof-muhit muhofazasi borasidagi huquqiy ongini oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali shu sohaga oid ijtimoiy reklamalarni koʻpaytirish lozimligi va uning samarasi asoslab berilgan;

mamlakatimizda qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishda raqamlashtirishning huquqiy imkoniyatlari tahlil qilingan;

byudjet mablagʻlari hisobidan qurilish jarayonida “yashil” standartlarni ommalashtirish maqsadida ekologik sertifikatlariga ega boʻlgan qurilish mahsulotlarni sotib olish boʻyicha tender hujjatlari talablarini belgilashga oid taklif ishlab chiqilgan;

qurilish uchun yer uchastkasini auksion (tender) asosida ajratishda qurilishni “yashil” standartlarga binoan amalga oshirishni taklif etayotgan talabgorga ustunlik berish amaliyotini joriy etish taklifi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, huquqni qoʻllash amaliyoti materiallari, xalqaro va xorijiy mamlakatlarning qonunchilik normalarini tahlil qilinganligi, rasmiy manbalar hamda ilmiy adabiyotlarga asoslanganligi, olingan xulosalar hamda takliflarning joriy etilganligi tegishli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalardan

kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo‘llash amaliyotida, shu jumladan, qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish bo‘yicha maxsus vakolatli davlat organlarining faoliyatida, ekologiya sohasidagi qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda “Ekologiya huquqi” va “Tabiiy resurslar huquqi” fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ekologiya va shaharsozlik sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish hamda huquqni qo‘llash amaliyotini rivojlantirish, ekologiya sohasidagi qonun hujjatlarini inventarizatsiyadan o‘tkazish, shuningdek, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli organlar va jamoatchilik tuzilmalarining faoliyatini takomillashtirishga bag‘ishlangan qonun hujjatlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** “Qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish masalalari” mavzusi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar quyidagilarda foydalanilgan:

qurilish jarayonida insonlar hayoti uchun ekologik xavfsiz texnologiyalarni qo‘llash va rivojlantirishni rag‘batlantirish tartibini joriy etilishi bilan bog‘liq takliflaridan O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksining 61-modda, ikkinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman)ning 2024-yil 19-iyundagi 01-07/321-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshishi qurilish jarayonida ekologik xavfsizlik standartlarini kuchaytirish, inson salomatligiga salbiy ta’sirlarni minimallashtirish va barqaror qurilish amaliyotlarini shakllantirishga xizmat qilgan;

gidrotexnika inshootlarini qurishda fuqarolarning hayoti va sog‘ligini himoya qilishning ustuvorligiga oid takliflaridan O‘zbekiston Respublikasining “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasi, uchinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman)ning 2024-yil 19-iyundagi 01-07/321-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshishi gidrotexnika inshootlarini qurishda fuqarolarning hayoti va sog‘ligini samarali himoya qilishga xizmat qilgan;

qurilish uchun tuproqlarni ko‘chirish jarayonida yerdan foydalanuvchilarning qonuniy manfaatlarining ustuvorligini ta’minlashga oid takliflari O‘zbekiston Respublikasi “Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman)ning 2024-yil 19-iyundagi 01-07/321-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshishi yerdan foydalanuvchilarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va qurilish jarayonida tuproqning unumdorligini saqlab qolishga xizmat qilgan;

shahar va boshqa aholi punktlarida qurilishlarni suv bosish hududlarini hisobga olgan holda amalga oshirish, shuningdek, tabiiy ariqlarni saqlab qolish va yog‘ingarchilik suvlarini chiqarib yuboruvchi yangi tizimlarni yaratishga oid

takliflaridan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-avgustdagi “Iqlim o‘zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 362-son Qarorining 50-band, yettinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta‘minlash departamentining 2024-yil 12-iyundagi 18-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshishi suv toshqini xavfini kamaytirish, tabiiy suv oqimlarini muhofaza qilish va yog‘ingarchilik suvlarini samarali boshqarishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro, 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 8 ta (2 ta xorijiy, 6 ta respublika jurnallarda) maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning hajmi 152 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan mosligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma‘lumotlar yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishning umumiy tavsifi va zamonaviy tendensiyalar”** deb nomlangan birinchi bobida qurilish sohasida atrof-muhitning ekologik va huquqiy muhofazasiga oid nazariy va amaliy jihatlar chuqur tahlil qilingan.

Jumladan, qurilish sohasiga tegishli huquqiy tushunchalar, qurilish faoliyati va uning atrof-muhitga ta‘siri bo‘yicha asosiy ilmiy va huquqiy yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, qurilish faoliyatining atrof-muhitga zarar yetkazmasligini ta‘minlashga qaratilgan mexanizmlar va huquqiy kafolatlar o‘rganilgan.

Tadqiqotda “qurilish” tushunchasining turli huquqiy va ilmiy manbalardagi ta‘riflari tahlil qilinib, qurilish faoliyatining huquqiy mazmuni va ekologik talablarga rioya qilinishi zarurligi asoslab berilgan. Jumladan, huquqshunos olimlar G.Uzakova, J.Safarov, A.Moral, L.Choltyan, D.Killough va Ch.Kibertning qarashlariga asoslangan holda qurilish faoliyatining ekologik xavfsizlik bilan

uyg'unlashuvining nazariy jihatlarini yoritilgan. Ilmiy-nazariy tahlillar asosida mualliflik ta'riflari berilgan.

“Barqaror rivojlanish” tamoyillariga mos ravishda qurilish sohasini ekologik standartlarga asoslangan holda tartibga solish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Xususan, “yashil qurilish” va uning zamonaviy ahamiyati bayon etilgan. Bu jarayon ekologik talablarga rioya qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq innovatsion yondashuv sifatida ko'rib chiqilgan.

Qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishning zamonaviy konsepsiyalari tahlil qilingan bo'lib, “tabiat-inson-shahar” tizimi asosida qurilish jarayonida atrof-muhit barqarorligini ta'minlash, ekologik qurilish, ochiq va “yashil shahar”larni barpo etish hamda qurilish jarayonida ekologik xavfsizlikni huquqiy ta'minlashga yo'naltirilgan.

Shuningdek, qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishning asosiy prinsiplari, jumladan, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, ekologik kompensatsiya, integratsiyalashgan yondashuv, jamoatchilik ishtiroki va ehtiyotkorlik prinsiplari tahlil qilingan.

Muallif qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikning rivojlanish jarayonlarini global va mahalliy darajada davrlarga bo'lgan holda o'rgangan.

Bobda qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishning zamonaviy tendensiyalari, xususan, energiya samaradorligi, “yashil binolar” va infrastrukturallarni rivojlantirish, qurilishda ekologik materiallarni oqilona tanlash kabi yo'nalishlar o'rganilgan. Bu tendensiyalar jahon tajribasi bilan bog'liq holda tahlil qilingan va O'zbekistonda joriy qilish uchun tegishli tavsiyalar berilgan.

Bobning yana bir muhim yo'nalishi — qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishda raqamlashtirish va sun'iy intellektning o'rni, uning rivojlantirish istiqbollari qaratilgan. Ushbu bo'limda tegishli davlat organlari ekologik nazorat jarayonida foydalaniladigan yagona tizimga integratsiyalash, tabiiy resurslardan foydalanish va ularga zarar yetish mumkin bo'lgan holatlarni aniqlash tizimini yaratish, sun'iy intellekt yordamida butun jarayonni nazorat qilish va boshqarish bilan bog'liq huquqiy mexanizmlarga alohida e'tibor qaratgan.

Sun'iy intellektdan qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish uchun keng foydalanayotgan Yaponiya, AQSH, Finlandiya, Germaniya kabi xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilingan.

Shu bilan birga raqamlashtirish jarayonlari orqali ekologik huquqiy monitoringni yaxshilash, atrof-muhitga zarar yetkazish xavfini oldindan baholash, ekologik talablarga mos keluvchi qarorlar qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Qurilish sohasida atrof-muhitni muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish”** deb nomlanib, ushbu bobda qurilish sohasida atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarining huquqiy asoslari va amaliy qo'llanilishi chuqur tahlil qilingan. Mazkur bobda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishning dolzarbligi, qurilish faoliyati bilan bog'liq ekologiyaga salbiy ta'sirlarni kamaytirish yo'llari hamda

barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun huquqiy normalarni amaliyotga joriy etishning muhimligi qayd etilgan.

Bu borada qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishda respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarning huquqiy maqomi va vakolatlari qiyosiy tahlil qilingan hamda sohaga oid ma'muriy boshqaruvni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Bobda, qurilish sohasi va atrof-muhit muhofazasi o'rtasidagi huquqiy bog'liqlik tahlil qilingan. Qurilish jarayonining atrof-muhitga ta'sirini minimallashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan huquqiy chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu sohada mavjud huquqiy me'yorlarning zamonaviy talablarga muvofiqligini baholash muhimligi qayd etilgan. Qurilishda tabiiy resurslarni oqilona foydalanish, energiyani tejash texnologiyalarini qo'llash hamda ekologik standartlarga rioya qilishning huquqiy mexanizmlariga alohida urg'u berilgan.

Shuningdek, barqaror rivojlanishga erishish uchun ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish hamda ulardan samarali foydalanishning huquqiy mexanizmlarini rivojlantirish zarurligi qayd etilgan. Qurilish jarayonida energiyani tejovchi va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan texnologiyalarni qo'llashni rag'batlantirish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish muhimligi alohida ta'kidlangan. Buni ekologik xavfsizlikni ta'minlashda davlat va jamoatchilikning o'zaro hamkorligini kuchaytirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Bobda qurilish sohasida atrof-muhitni muhofaza qilish uchun ekologik nazorat, xususan jamoat ekologik nazoratini yanada kuchaytirish zarurligi qayd etilgan. Ayniqsa, qurilish sohasida jamoatchilikning ekologik masalalardagi ishtirokini oshirish, fuqarolar va nodavlat tashkilotlarning atrof-muhit muhofazasidagi rolini rag'batlantirish, jamoatchilikni ekologik axborotga ega bo'lish va qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish huquqini ta'minlash bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Shuningdek, ekologik nazoratni amalga oshirishda ekologik qonunchilikni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Qurilish faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarning aniqligi va muvofiqligini ta'minlash, ekologik xavflarni kamaytirish uchun yangi qoidalar va normalarni joriy etish taklif qilingan. Xususan, ekologik ekspertizalarni yanada shaffoflashtirish va ekologik xavfsizlik talablarini huquqiy hujjatlarda aniq bayon etish zarurligi ta'kidlangan.

Qurilish sohasida ekologik xavflarni kamaytirish maqsadida loyihalarni tasdiqlash jarayonida atrof-muhitga ta'sirni oldindan baholash mexanizmlari ham ko'rib chiqilgan. Atrof-muhitga zarar yetkazish ehtimolini kamaytirish uchun har bir loyihaning ekologik xavfsizlik darajasini aniqlash muhimligi qayd etilgan.

Bobda davlat va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati alohida qayd etilgan. Bu hamkorlik ekologik talablarga rioya etilishini ta'minlash, atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq qarorlar qabul qilishda shaffoflikni oshirish va ekologik xavflarni kamaytirishga xizmat qilishi asoslangan. Jamoatchilik ekologik nazoratining kuchayishi tabiat muhofazasi bo'yicha umumiy mas'uliyatni oshirishga yordam beradi. Davlat ekologik nazoratining samaradorligini oshirish

uchun qonun hujjatlarini aniqlashtirish, ekologik xavfsizlik talablariga muvofiq kelmaydigan loyihalarni tasdiqlamaslik va ekologik normalarga mos kelmaydigan qurilish ishlarini nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligi qayd etilgan.

Qurilish sohasida ekologik - huquqiy me'yorlarning qo'llanishi va tartibiga ham ilmiy nuqtai nazardan yondashilgan hamda atrof-muhitga ta'sirni baholash kabi muhim jihatlarga e'tibor qaratgan. Muallif tomonidan qurilish faoliyatining barcha bosqichlarida atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan aniq takliflar va ularning huquqiy mexanizmlari keltirilgan.

Ushbu taklif va tavsiyalarning hayotga tatbiq etilishi ekologik barqarorlikni ta'minlash, atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni minimallashtirish hamda ekologik xavfsizlikni oshirishga qaratilgan muhim qadam bo'lib xizmat qilishi, tadqiqot natijalari qurilish sohasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha qonunchilikni takomillashtirishga ko'maklashishi va ushbu sohada yangi ilmiy ishlar uchun asos yaratishiga xizmat qilishi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishga oid qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari va xorijiy tajriba”** deb nomlangan. Bunda qurilish sohasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha milliy va xalqaro qonunchilikning o'zaro bog'liqligi, amaldagi tajribalar va kelgusida huquqiy asoslarni takomillashtirish masalalari chuqur o'rganilgan.

Muallif ushbu mavzuda ilmiy-nazariy tahlil va amaliy tavsiyalarni ilgari surgan bo'lib, bobning asosiy mazmuni xalqaro tajriba, milliy qonunchilik va ularni yanada rivojlantirish yo'nalishlariga bag'ishlangan.

Birinchiidan, muallif tomonidan ilg'or rivojlangan davlatlarda qurilish sohasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha qo'llanilayotgan samarali mexanizmlarni o'rganib, ularning ahamiyatini ta'kidlaydi. Germaniya, AQSh, Yaponiya, Xitoy va Hindistondagi "yashil qurilish" standartlari qurilish sohasida barqaror rivojlanishni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri sifatida ko'rsatilgan.

Bunda LEED, BREEAM va DGNB kabi ekologik sertifikatlash tizimlari tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni qayta ishlashda muhim rol o'ynashi qayd etilgan. Shuningdek, AQShdagi "Federal Sustainability Plan", Germaniyaning ekologik siyosati va Yaponiyaning tabiatni himoya qilishga qaratilgan qonunlari misolida barqaror rivojlanishga erishishning huquqiy asoslari tahlil qilingan.

Ikkinchiidan, muallif xalqaro huquq normalarining milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishi jarayoniga alohida e'tibor qaratgan. BMTning 2030 yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish maqsadlari, jumladan, 11-maqсад (Barqaror shaharlar va aholi yashash joylari) qurilish sohasida atrof-muhit muhofazasi uchun asosiy yo'nalish sifatida o'rganilgan. Xalqaro ekologik standartlar, ayniqsa ISO 14001 va ISO 21930, milliy qonunchilikka integratsiya qilingan holda atrof-muhit muhofazasining zamonaviy talablarini ta'minlashda muhim ekani ta'kidlangan. Shuningdek, BMTning inson huquqlari deklaratsiyasidan kelib chiqqan holda, ekologik xavfsizlikni ta'minlash inson huquqlarining ajralmas qismi ekanligi qayd etilgan.

Uchinchidan, qurilish sohasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar, jumladan energiya samaradorligi va "yashil qurilish" standartlarini joriy qilishga oid qonunchilikni rivojlantirish zarurligini ko'rsatgan. Ekologik xavflarni kamaytirish maqsadida energiya tejoychi texnologiyalarni qo'llashni qonunchilik darajasida rag'batlantirish taklif qilingan.

Muallif tomonidan xorijiy tajribadan kelib chiqib, ekologik ekspertizani kuchaytirish va uning amalda samarali qo'llanilishini ta'minlash uchun tegishli qonun normalarini qayta ko'rib chiqishni taklif qilgan. Shuningdek, ekologik me'yorlarni buzganlik uchun jazo choralarini kuchaytirish, jinoiy javobgarlikni joriy qilish orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalasi tahlil qilingan.

## XULOSA

Qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishga oid ilmiy-yuridik adabiyotlar, mazkur masala yuzasidan huquqni qo'llash amaliyoti, statistik ma'lumotlar hamda xorijiy davlatlar qonunchiligini o'rganish va tahlil qilish natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

### **I. Ilmiy-nazariy xulosalar:**

1.1. Qurilish sohasini huquqiy tartibga solish nuqtayi nazaridan hamda ekologik xavfsizlik ustuvorligidan kelib chiqib bildirilgan barcha ilmiy qarashlar, modellar va yo'nalishlarni o'rgangan holda quyidagi konsepsiyalarga mazmunan mualliflik munosabatlari bildirildi:

1) Qurilish jarayonida atrof-muhit barqarorligini ta'minlash konsepsiyasi. Bu konsepsiya tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ekologik barqarorlikka erishishni maqsad qiladi. Bu konsepsiya asosida qurilish sohasidagi faoliyat ekologik standartlar va sanitariya qoidalariga muvofiq olib borilishi talab etiladi. Qurilish loyihalarini tasdiqlash jarayonida atrof-muhitga ta'sirni baholash uchun ekologik ekspertiza o'tkaziladi, bunda loyihaning salbiy ta'sirini minimallashtirish uchun zarur chora-tadbirlar taklif qilinadi.

2) Ekologik qurilish konsepsiyasi. Bunda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni, qurilish jarayonida va foydalanish bosqichida atrof-muhitga zararli ta'sirni minimal darajaga tushirishni, shuningdek, yashash va mehnat uchun sog'lom, xavfsiz muhit yaratishni nazarda tutuvchi innovatsion yondashuvdir. Ushbu konsepsiya qurilish materiallarini tanlashdan tortib, energiya samaradorligiga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llashgacha bo'lgan barcha jarayonlarda ekologik talablarni ustuvor hisoblashni o'z ichiga oladi. Konsepsiyasining asosiy maqsadi inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatni tiklash, barqaror rivojlanish tamoyillarini qurilish faoliyatiga joriy etishdir.

3) Ochiq, barqaror va yashil shaharlarni barpo etish konsepsiyasi. Ushbu konsepsiya shaharlarni rejalashtirish, yerdan foydalanish va infratuzilmani rivojlantirish masalalarini huquqiy jihatdan tartibga soladi. Shaharlar va qishloqlar infratuzilmasini rivojlantirishda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy faktorlarni hisobga olishni talab qiladi. Bunda yangi qurilish loyihalarining shahar bosh rejasiga

muvofigligini ta'minlash, yerdan oqilona foydalanish va "yashil shahar" prinsiplarini joriy etish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

4) Qurilish jarayonida shaharsozlik, ekologik, seysmik talablar va boshqa texnik standartlarni uyg'unlashtirish orqali xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyasi. Mazkur konsepsiya qurilish faoliyatining barcha bosqichlarida tabiiy atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, aholining qulay va xavfsiz yashash muhitiga bo'lgan huquqini ta'minlash, shuningdek, shahar infratuzilmasini barqaror rivojlantirishni maqsad qiluvchi tizimli yondashuvdir. Ushbu konsepsiya tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish, ekologik me'yorlarga rioya qilish va urbanizatsiya jarayonlarini inson manfaatlariga moslashtirishni asosiy tamoyil sifatida belgilaydi.

1.2. Qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishning asosiy prinsiplari ishlab chiqildi hamda tasniflandi.

1) Barqaror rivojlanish prinsipi - qurilishning hozirgi avlod ehtiyojlarini hisobga olgan holda, kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga ta'sir qilmasdan amalga oshirilishi lozimligini ifoda etadi.

2) Ekologik xavfsizlik prinsipi - mazkur prinsipning amalga oshirilishi ta'sirlarni tahlil qilishga va tabiiy ekotizimlarda va umuman biosferada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan keyingi o'zgarishlar va oqibatlar prognoziga asoslanadi.

3) Ekologik kompensatsiya prinsipi - agar salbiy ekologik oqibatlarning to'liq oldini olishning imkoni bo'lmasa, ishlab chiquvchilar atrof-muhitga yetkazilgan zararni uni qayta tiklash yoki himoya qilish choralarini kiritish orqali qoplashlarini nazarda tutadi.

4) Integratsiyalashgan yondashuv prinsipi - qurilishda ekologik muammolarni hal qilish turli omillar va oqibatlarning o'zaro bog'liqligini hisobga oladigan har tomonlama tahlilga asoslangan bo'lishi lozimligini bildiradi.

5) Shaffoflik va jamoatchilik ishtiroki prinsipi - qurilish jarayonidan manfaatdor barcha tomonlar uning ekologik jihatlari haqida ma'lumot olishlari va qarorlar qabul qilishda ishtirok etishlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

6) Ehtiyotkorlik prinsipi - qurilish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda, hatto ularning paydo bo'lishi to'liq aniq bo'lmasa ham, atrof-muhit uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarning oldini olish choralarini ko'rishni o'z ichiga oladi.

1.3. Qurilish tushunchasiga huquqiy jihatdan quyidagicha mualliflik ta'rifi berildi: "qurilish – bu belgilangan huquqiy normalarga rioya qilingan holda, ya'ni davlatning vakolatli organlari tomonidan aniq maqsad uchun ajratilgan er uchastkasida tasdiqlangan loyiha asosida amalga oshiriladigan moddiy ishlab chiqarishning turi bo'lib, bino, inshoot va qonun bilan taqiqlanmagan boshqa qurilmalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish bilan bog'liq yaratuvchilik jarayoni hisoblanadi".

1.4. Qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofazasi tushunchasiga huquqiy jihatdan quyidagicha mualliflik ta'rifi berildi: "qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish - barqaror ekologik muhitni ta'minlash maqsadida qurilish loyihalarini tasdiqlashda ekologik talablarga rioya qilish, qurilish jarayonida atmosfera havosi, yer, suv va boshqa tabiat obyektlariga zarar yetkazilishi, ifloslanishni minimallashtirish, qurib bitkazilgan bino-inshootlarning

atrof-muhitga salbiy ta'sirini oldini olish yoki kamaytirish, butun qurilish jarayonida aholining ekologik, mulkiy va boshqa huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq talablarni bajarish tushuniladi”.

1.5. Bugungi kundagi qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilish doirasidagi quyidagi asosiy tendensiyalar tasniflangan holda o'rganildi.

- energiya samaradorligi (yashil energiya) oshirish tendensiyasi;
- yashil binolarni yaratish tendensiyasi;
- yashil infratuzilmani rivojlantirish (Development of Green Infrastructure) tendensiyasi;
- qurilish jarayonlarini boshqarish (Smart Construction) tendensiyasi;
- qurilishda to'g'ri materiallarni tanlash (green shopping) tendensiyasi.

1.6. Qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishga oid qonunchilikning jahon miqyosida rivojlanish bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan tasniflab berildi.

1) Boshlang'ich bosqich (XIX asr – XX asr boshlari) - industrializatsiya davri.

2) Rivojlanish bosqichi (XX asr o'rtalari) - atrof-muhit harakati davri.

3) Institutlashtirish bosqichi (XX asr oxiri – XXI asr boshlari) - qonunchilikning kengayishi davri.

4) Barqaror rivojlanish va integratsiya bosqichi (XXI asr) - barqaror qurilish davri.

1.7. Shaharsozlik reglamenti tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi berildi: “shaharsozlik reglamenti – hududlarni va aholi punktlarini qurishning texnik va ekologik qoidalari, shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish chog'ida aholi punktlarining hamda aholi punktlararo hududlarning yer uchastkalari tabiiy resurslar va boshqa ko'chmas mulk obyektlaridan foydalanish ko'rsatkichlari hamda turlarining yig'indisi”.

1.8. Qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishga oid huquqbuzarliklar tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi berildi: “qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishga oid huquqbuzarliklar deganda, qurilish faoliyati davomida belgilangan ekologik me'yorlar va talablarni buzish orqali atrof-muhitga zarar yetkazuvchi noqonuniy harakatlar yoki harakatsizliklar tushuniladi”.

1.9. Qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishda yuridik javobgarlik tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi berildi: “qurilish sohasida atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishda yuridik javobgarlik — bu qurilish faoliyati davomida amaldagi ekologik qonunchilik va me'yoriy talablarni buzganlik uchun qonunchilikda belgilangan tartibda jismoniy va yuridik shaxslarning javobgarlikka tortilishi va tegishli jazo choralarining qo'llanilishi tushuniladi”.

## **II. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan taklif va tavsiyalar:**

2.1. Qurilish jarayonida barqaror rivojlanishga erishishning dolzarbligini hisobga olgan holda insonlar hayoti uchun ekologik xavfsiz texnologiyalarni qo'llash va rivojlantirishni rag'batlantirish tartibini joriy etish maqsadida

O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksining 61-moddasi uchinchi xatboshisi **“qurilish jarayonida energiyani tejovchi, ekologik xavfsiz, ijtimoiy foydali texnologiyalarni qo‘llash va ulardan foydalanganlik uchun rag‘batlantirish”** tahrirda bayon qilish taklif etiladi.

2.2. Hidrotexnika inshootlari xavfsizligini ta‘minlashda inson hayoti va salomatligini himoya qilishni, shuningdek, atrof-muhitni asrashni ustuvorlikka aylantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Hidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasi uchinchi xatboshisi **“fuqarolarning hayoti va sog‘ligini himoya qilishning, shuningdek atrof-muhitni himoya qilishning ustuvorligi”** tahrirda bayon qilish taklif etiladi. Bu esa o‘z navbatida gidrotexnika inshootlaridagi xavf-xatarlarni minimallashtirish va ekologik barqarorlikni saqlash uchun davlat siyosatida inson va tabiat manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yishni nazarda tutadi.

2.3. Tuproq muhofazasida inson salomatligi va ekologik barqarorlikni ta‘minlash, tuproq resurslaridan barqaror foydalanish va ekologik xavflarni kamaytirishga yo‘naltirilgan siyosatni mustahkamlash, shuningdek, atrof-muhitni himoya qilish orqali aholi salomatligiga yetkazilishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarining oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasini **“inson sog‘ligining va atrof-muhit xavfsizligining ustuvorligi”** xatboshisi bilan to‘ldirish taklif etiladi.

2.4. Shaharsozlikda suv bosish xavfini kamaytirish va tabiiy suv oqimlarini saqlab qolish orqali aholi punktlarida suv toshqinlariga qarshi barqaror infratuzilmani yaratishni ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-avgustdagi “Iqlim o‘zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 362-son qarorining 50-bandini quyidagi xatboshi bilan to‘ldirish taklif etiladi:

**“...aholi punktlari bosh rejalariga muvofiq shahar va boshqa aholi punktlarida qurilishlarni suv bosish hududlarini hisobga olgan holda amalga oshirish, shuningdek, tabiiy ariqlarni saqlab qolish va yog‘ingarchilik suvlarini chiqarib yuboruvchi yangi tizimlarini yaratish (jala kollektorlari va boshqalar)”**.

2.5. Nodavlat-notijorat tashkilotlariga atrof-muhitni himoya qilishda faollikni oshirish va zararli obyektlarning faoliyatini tugatishda ularning huquqiy rolini kuchaytirish orqali ekologik barqarorlikka erishishni ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksining 215-moddasiga **“...Atrof tabiiy muhitga zararli ta’sir ko‘rsatayotgan obyektlar faoliyatini tugatishda nodavlat-notijorat tashkilotlari ham ariza berishlari mumkin”** degan jumla bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq.

2.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 5 avgustdagi 216-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 32-bandida “davlat ekologik nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organlari ularga yuklangan vazifalarga muvofiq o‘z vakolatlari doirasida belgilangan tartibda foydali qazilma boyliklarni qazib

olish, qurilish va boshqa ishlar uchun berilgan qishloq xo‘jaligi va o‘rmon yerlarni, boshqa yerlarni, ularga zarurat qolmaganda - maqsadga ko‘ra foydalanishga yaroqli holga keltirishni o‘z ichiga oluvchi yerlarni muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlar majmuasining bajarilishini tekshirishi aks etgan. Mazkur normaning tegishli qismidagi **“boshqa yerlarni”** tushunchasiga aniqlik kiritib ketish maqsadga muvofiq.

2.7.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 5-avgustdagi 216-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 40-bandi quyidagicha bayon qilingan.

“Reyd tartibidagi ekologik nazorat:

